

DIRIJOR VA ORKESTR O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK ALOQA

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.009>

Jalolxon Mamatov
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada dirijorlik faoliyatida muhim hisoblangan psixologik omillar tahlil qilinadi. Dirijor va orkestr o'rtasidagi o'zaro psixologik aloqa, noverbal muloqot vositalari, emotsional intellekt va yetakchilik masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida psixologik muhitning orkestr ijrosi sifatiga ta'siri nazariy manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: dirijorlik san'ati, orkestr, psixologik aloqa, musiqiy muloqot, emotsional intellekt

PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN CONDUCTOR AND ORCHESTRA

Jalolkhon Mamatov
Kokand State University

Abstract: This article analyzes the psychological aspects of conducting. The psychological interaction between the conductor and the orchestra, non-verbal communication, emotional intelligence, and leadership qualities are examined. The study highlights the role of psychological climate in achieving high artistic performance.

Keywords: conducting, orchestra, psychological interaction, musical communication, emotional intelligence

Dirijorlik san'ati murakkab va ko'p qirrali faoliyat bo'lib, u nafaqat musiqiy bilim va texnik tayyorgarlikni, balki psixologik yetuklikni ham talab qiladi. Dirijor orkestr bilan ishlash jarayonida jamoani bir butun mexanizm sifatida boshqaradi. Shu nuqtai nazardan, dirijor va orkestr o'rtasidagi psixologik aloqa musiqiy ijroning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Orkestr dirijori - bu simfonik, kamer yoki estrada orkestrining ijodiy rahbari bo'lib, musiqa asarining badiiy talqini, texnik aniqligi va ijrochilar o'rtasidagi uyg'unlik uchun mas'ul shaxsdir. Dirijor orkestr ijrosini yagona badiiy organizm sifatida boshqaradi va asarning mazmunini tinglovchilarga yetkazadi.

Orkestr dirijorining faoliyati quyidagi nazariy vazifalarni o'z ichiga oladi: musiqa asarini chuqur tahlil qilish (forma, janr, garmoniya, polifoniya), temp, ritm va metrni aniqlash hamda boshqarish, orkestr guruhlarini o'rtasida muvozanat (balans)ni ta'minlash, dinamik belgilarning (p, f, crescendo, diminuendo) aniq ijrosini nazorat qilish, ansambl aniqligi va sinxronlikni ta'minlash. Dirijor repetitsiya jarayonida ijrochilarni tayyorlaydi, konsert jarayonida esa ijroni boshqaradi.

Zamonaviy musiqa ijrochiligida texnik mukammallik yetarli emas, balki ijrochilar o'rtasida o'zaro tushunish va ichki uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etadi. Dirijor ana shu uyg'unlikni yaratib beruvchi markaziy shaxs sifatida maydonga chiqadi.

Dirijorlik faoliyatining psixologik xususiyatlari o'ziga hos jarayon bo'lib, quyida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. Dirijorlik jarayoni psixologik jihatdan murakkab boshqaruv faoliyatidir. Dirijor bir vaqtning o'zida musiqiy jarayonni nazorat qiladi, ijrochilarning emotsional holatini sezadi va umumiy ijodiy yo'nalishni belgilaydi. Psixologiya fanida bunday faoliyat yetakchilik faoliyati sifatida qaraladi.

B.V.Asafyev fikriga ko'ra, dirijor orkestr ijrosining ichki mazmunini ochib beruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Dirijorning ichki ishonchi va ruhiy barqarorligi orkestr ijrochilariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Dirijorlik san'atida og'zaki nutqdan ko'ra noverbal muloqot muhimroq o'rin tutadi. Qo'l harakatlari, mimika, nigoh va tana holati orqali dirijor orkestrga aniq psixologik signallar uzatadi. Ushbu signallar ijrochilar tomonidan tez va aniq qabul qilinadi.

Vilgelm Furtvengler ta'kidlaganidek, ba'zan bitta ishora yoki qarash orkestr ijrosining umumiy kayfiyatini o'zgartirishi mumkin. Bu esa dirijor va orkestr o'rtasida mustahkam psixologik aloqa mavjud bo'lgandagina amalga oshadi.

Ishonch va ijodiy muhitning ahamiyati shundaki, ishonch va ijodiy muhit yaxshi bo'lgan holatda ish samaradorligi yuqori bo'ladi. Psixologik ishonch orkestr jamoasining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Agar dirijor orkestr a'zolariga nisbatan hurmat va adolat tamoyillarini saqlasa, ijrochilarda ijodiy erkinlik paydo bo'ladi. Bu holat musiqiy ifodaning yanada chuqur va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi.

K.S.Stanislavskiy ijodiy faoliyat uchun qulay psixologik muhit zarurligini alohida ta'kidlaydi. Dirijor ana shunday muhitni yaratib bera oladigan shaxs bo'lishi lozim.

Emotsional intellekti yuqori bo'lgan dirijor bilan ishlash baxtdir. Zamonaviy tadqiqotlarda emotsional intellekt tushunchasi yetakchi sifatlar qatorida ko'rsatiladi. Dirijor uchun bu sifat orkestr kayfiyatini sezish, stressli vaziyatlarni boshqarish va ijrochilarni ruhlantira olishda namoyon bo'ladi.

D.Goleman fikricha, haqiqiy yetakchi boshqalarning emotsional holatini tushuna olishi kerak. Dirijorlik faoliyatida bu sifat orkestr bilan samarali psixologik aloqani ta'minlaydi.

Repetitsiya jarayonida psixologik munosabatlar alohida o'rin egallaydi. Repetitsiya jarayoni dirijor va orkestr o'rtasidagi psixologik aloqaning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda dirijorning muloqot madaniyati, pedagogik yondashuvi va sabr-toqati katta ahamiyatga ega. Ijobiy psixologik muhitda olib borilgan repetitsiya ijrochilarning mas'uliyatini oshiradi va ijro sifatini yaxshilaydi.

Sahnada psixologik barqarorlik muhim. Konsert jarayonida dirijor orkestr uchun psixologik tayanch vazifasini bajaradi. Sahna hayajoni sharoitida dirijorning xotirjamligi va ishonchi orkestr ijrochilariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevgeniy Mravinskiy fikricha, dirijorning ichki tinchligi orkestr ijrosida barqarorlikni ta'minlaydi.

Nazariy jihatdan orkestr dirijori - musiqiy bilim, texnik mahorat va yetakchilik qobiliyatini uyg'unlashtirgan markaziy shaxsdir. Uning bilim va ko'nikmalari orkestr ijrosining badiiy darajasini belgilaydi. Orkestr dirijorligi san'ati chuqur nazariy tayyorgarlik va doimiy amaliy mashg'ulotni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dirijor va orkestr o'rtasidagi psixologik aloqa musiqiy ijroning badiiy saviyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Dirijorning shaxsiy fazilatlari, emotsional intellekti va muloqot madaniyati orkestr jamoasining ijodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asafyev B.V. Musiqi nazariyasi va tahlili. - Moskva, 1971.
2. Goleman D. Emotional Intelligence. - New York, 1995.
3. Bernshteyn L. The Art of Conducting. - London, 1980.
4. Stanislavskiy K.S. Ijod psixologiyasi. - Moskva, 1960.
5. Furtvengler V. Music and Word. - Berlin, 1954.
6. Xolnazarovich, B. X. (2024). Badiiy Matn Va uning Lingvopoetik Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 51, 298-303.
7. Holnazarovich, B. H. (2020). Explanation of yurt building terms with through semantic methods. *Journal Homepage*: <http://www.ijmra.us>, 9, 06.
8. Berdiev, H. (2020). Лингвопоэтика Масалалари Тадкиқида “Девону Луғотит Турк” Нинг Ўрни. *Scienceproblems.uz*, 2(2), 7-7.
9. Бердиев, Х. Х. (2016). Метафорические термины в лексике юртовозведения. *Язык в сфере профессиональной коммуникации*.— Екатеринбург, 2016, 73-76.